


SAMARQAND VILOYATIDA QISHLOQ XO'JALIGI KO'RSATKICHLARI

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti – hisobot davrida qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi sub'ektlar tomonidan ishlab chiqarilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmlarining qiymatini belgilab, ishlab chiqarishning umumiy hajmini ifodalaydi.

2018 yilning yanvar-iyunida ishlab chiqarilgan (ko'rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 3480,0 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2017 yilning shu davriga nisbatan o'sish darajasi 100,5 foiz bo'ldi. Shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3469,1 mlrd. so'mni va qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 100,4 mlrd. so'mni (2017 yil yanvar-iyuniga nisbatan mos ravishda 102,3 va 205,7 foiz) tashkil qildi. Qolgan 10,1 mlrd. so'mni esa baliq, o'rmon va ovchilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohalari hissasiga to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi

(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)



Hosil yig'imi. 2018 yil yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 418,8 ming tonna boshoqli don ekinlari, shundan 414,0 ming tonna bug'doy ishlab chiqarildi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda 295,8 ming tonna kartoshka (2017 yilga nisbatan 100,4 foizga ko'p), 287,6 ming tonna sabzavotlar (101,3 foizga ko'p), 14,5 ming tonna poliz ekinlari (114,4 foizga ko'p), 102,6 ming tonna meva va rezavorlar (96,8 foizga kam) va 2,2 ming tonna uzum (122,6 foizga ko'p) yetishtirildi.

Chorvachilik. 2018 yilning 1 iyul holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 100,6 foizga (jami 1527,6 ming boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 100,2 foizga (660,2 ming bosh), qo'y va echkilar 100,1 foizga (2342,6 ming bosh), otlar 103,0 foizga (25121 bosh) va parrandalar (11160,9 ming bosh) 109,9 foizga o'sdi.


Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go'sht, sut, tuxum) ishlab chiqarishning o'sishi asosan dehqon va fermer xo'jaliklari hisobiga bo'lib, go'sht ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushi 85,3 va 8,8 foizni, sut ishlab chiqarishda 91,7 va 8,1 foizni, tuxum ishlab chiqarishda 44,8 va 15,7 foizni tashkil etdi.

**2018 yil 1 iyul holatiga chorva mollari va parrandalar
bosh soni**


	<i>ming.bosh</i>	<i>O'sish sur'ati, %</i>
Yirik shoxli qoramollar	1527,6	100,6
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	67,2	100,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	1451,2	100,4
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,2	180,4
Ulardan sigirlar	660,2	100,2
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	23,1	100,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	635,3	100,2
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1,8	107,7
Qo'y va echkilar	2342,6	100,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	128,5	100,3
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	2020,7	100,0
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	193,4	100,1
Otlar	25,1	103,0
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2,2	149,8
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	22,4	100,0
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,5	100,4
Parrandalar	11160,9	109,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	2407,4	134,1
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	5065,4	100,0
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3688,1	111,8

**2018 yil 1 iyul holatiga tumanlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**


Yirik shoxli qoramollar (*ming bosh*)




shu jumladan sigirlar (*ming bosh*)



Qo'ylar va echkilar (*ming bosh*)



Parrandalar (*ming bosh*)



Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 95,0 foizni, fermer xo'jaliklarida esa 4,4 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 96,2 va 3,5 foizni, qo'y va echkilar 86,3 va 5,5 foizni, otlar 89,2 va 8,6 foizni, parrandalar 45,4 va 21,6 foizni tashkil etdi.


2018 yilning yanvar-iyunida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 144,0 ming tonna go'sht (2017 yilning yanvar-iyunga nisbatan 107,9 foizga ko'p), 624,6 ming tonna sut (101,7 foizga ko'p), 614,7 mln. dona tuxum (100,1 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	<i>miqdori</i>	<i>O'sish sur'ati,%</i>
Go'sht (tirik vaznda), ming tn.	144,0	107,9
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	12,6	475,4
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	122,8	100,3
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,6	102,7
Sut, ming tn.	624,6	101,7
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	50,8	222,0
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	572,8	97,1
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,9	103,0
Tuxum, mln. dona	614,7	100,1
<i>shu jumladan:</i>		
Fermer xo'jaliklari	96,4	86,2
Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari	275,5	100,7
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	242,7	106,0

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibi

(ishlab chiqarish umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)



Fermer xo'jaliklari. 2018 yilning yanvar-iyunida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 617,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo'jaliklarining ulushi 18,0 foizni tashkil etdi.

2018 yilning 1 iyul holatiga fermer xo'jaliklarida 67,2 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 23,1 ming bosh sigir, 128,5 ming bosh qo'y va echkilar, 2172 bosh ot, 2407,4 ming bosh parrandalar mavjud.

2018 yil yanvar-iyun holatiga fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari

	yanvar-iyun				2017 yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobidi
	2017 yil		2018 yil		
	ming tonna	ishlab chiqarish umumiy hajmida ulushi, foiz	ming tonna	Ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz	
Boshoqli don	406,9	75,6	319,2	76,2	78,4
shundan: bug'doy	405,0	76,1	317,4	76,7	78,4
Kartoshka	36,0	12,2	13,4	4,5	37,2
Sabzavot	104,1	36,7	59,4	20,7	57,1
Poliz	5,4	42,2	2,7	18,6	50,5

	<i>yanvar-iyun</i>				<i>2017 yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobidi</i>
	<i>2017 yil</i>		<i>2018 yil</i>		
	<i>ming tonna</i>	<i>ishlab chiqarish umumiy hajmida ulushi, foiz</i>	<i>ming tonna</i>	<i>Ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, foiz</i>	
<i>Meva va rezavorlar</i>	15,9	15,0	11,2	10,9	70,5
<i>Uzum</i>	1,4	76,6	1,7	75,5	120,8
<i>Go'sht, tirik vaznda</i>	2,7	2,0	12,6	8,8	4,7m
<i>Sut</i>	22,9	3,7	50,8	8,1	2,2m
<i>Tuxum, mln. dona</i>	111,8	18,2	96,4	15,7	86,2
<i>Jun, tonna</i>	0,04	1,9	0,1	6,2	3,2m